

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTONDA TIBBIYOT FANI TADQIQOTLARINING AHVOLI

Bekzod Shuxratovich Toshpo'latov

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21872755>

Annotatsiya. Mazkur maqolada urush sharoitining tibbiyot fani va sog'liqni saqlash tizimiga ta'siri, yaradorlar va bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish, yuqumli va boshqa kasalliklarning oldini olish borasidagi ilmiy-amaliy faoliyat tarixiy manbalar asosida tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Ikkinchi jahon urushi, tibbiyot fani, tibbiyot tarixi, tibbiy ta'lim, ilmiy-tadqiqot, tibbiyot muassasalari, tarixiy manbalar, tibbiyot kadrlari.

Аннотация. В данной статье на основе исторических источников рассматривается влияние военных условий на медицинскую науку и систему здравоохранения, научно-практическую деятельность по оказанию медицинской помощи раненым и больным, а также профилактику инфекционных и других заболеваний.

Ключевые слова: Узбекистан, Вторая мировая война, медицинская наука, история медицины, медицинское образование, научные исследования, медицинские учреждения, исторические источники, медицинский персонал.

Abstract. This article examines the impact of war conditions on medical science and the healthcare system, scientific and practical activities in providing medical care to the wounded and sick, and preventing infectious and other diseases based on historical sources.

Keywords: Uzbekistan, World War II, medical science, medical history, medical education, scientific research, medical institutions, historical sources, medical personnel.

1939-yilga kelib O'zbekistonda tibbiyot fanining muassasaviy asosi asosan shakllangan edi. Uning o'zagini bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari va tibbiyot o'quv yurtlari tashkil etardi. Xususan, 1924-yilda Buxoroda ta'sis etilgan, 1931-yilda Samarqandga ko'chirilib respublika miqyosidagi muassasaga aylantirilgan Tropik tibbiyot instituti mintqa uchun dolzarb bo'lgan bezgak, rishta (drakunkulyoz), leyshmanioz kabi kasalliklarni o'rganish va ularga qarshi kurashning ilmiy markaziga aylangan edi.¹ Uning faoliyati bilan L. M. Isayev boshchiligidagi tropik tibbiyot maktabining shakllanishi bog'liq bo'lib, aynan shu maktab respublikada rishtaning butunlay tugatilishi (1932-yil) va bezgakka qarshi tizimli kurashning yo'lga qo'yilishida hal qiluvchi rol o'ynadi.²

Tropik tibbiyot instituti bilan bir qatorda respublikada epidemiologiya va mikrobiologiya instituti, vaksina va zardoblar ishlab chiqarish muassasasi, Ona va bolani muhofaza qilish ilmiy-tadqiqot instituti (ГНИОММ), sanitariya instituti, teri-tanosil kasalliklari instituti hamda

¹ История развития медицинской науки в Узбекистане // Молодой учёный. — 2016. — № 6 (110). Shuningdek: Тропик tibbiyot instituti (Buxoro, 1924; Samarqand, 1931) faoliyatiga oid materiallar.

² L. M. Isayev (1886–1964) rahbarligidagi Buxoro ilmiy ekspeditsiyasi negizida institut 1930-yillarda o'nlab bezgakka qarshi stansiyalar va sog'lomlashtirish shoxobchalarini birlashtirgan tarmoqqa aylandi. Qarang: yuqoridagi manba.

eksperimental tibbiyot yo'nalishidagi muassasalar faoliyat ko'rsatardi.³ Oliy tibbiy ta'lim va ilmiy kadrlar tayyorlash asosan 1919-yilda tashkil etilgan Turkiston (keyinchalik O'rta Osiyo) davlat universiteti tibbiyot fakulteti negizida vujudga kelgan Toshkent tibbiyot instituti va Samarqand tibbiyot instituti zimmasida edi. Shu tariqa, urush arafasida O'zbekiston tibbiyot fani nafaqat o'quv, balki mustaqil ilmiy-tadqiqot funksiyasini ham bajaruvchi, mintaqa patologiyasini o'rganishga ixtisoslashgan muassasalar tarmog'iga ega edi.

Oliy tibbiy ta'lim tizimi ham urush arafasida yetarlicha shakllanib ulgurgan edi. Toshkent tibbiyot instituti bilan bir qatorda Samarqand tibbiyot instituti va Toshkent farmatsevtika instituti faoliyat yuritib, ular respublikani shifokorlar, provizorlar va ilmiy kadrlar bilan ta'minlashning asosiy o'choqlari edi. Bu institutlar o'z klinikalari, kafedralari va ilmiy maktablariga ega bo'lib, ularda o'qitish jarayoni ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan uyg'unlashgan edi. Shu tariqa urush arafasida O'zbekistonda tibbiyot fani oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot institutlari va amaliy sog'liqni saqlash muassasalarini o'z ichiga olgan yaxlit tizim ko'rinishini olgan bo'lib, aynan shu tizim urush davri og'irliklarini ko'tarishga qodir zamin yaratdi⁴.

1941-yil iyunidan boshlangan urush bu tarmoqning ish rejimini keskin o'zgartirdi. Malakali shifokorlar va ilmiy xodimlarning katta qismi frontga safarbar etildi, moddiy-texnik ta'minot cheklandi, ilmiy tadqiqotlar mavzulari mudofaa ehtiyojlariga - jarohatlarni davolash, epidemiyalarning oldini olish, biologik preparatlar ishlab chiqarishga qayta yo'naltirildi. Ayni paytda O'zbekiston frontorti hududi sifatida g'arbdan ko'chirilgan aholi, sanoat korxonalari, o'quv va ilmiy muassasalarni qabul qildi. Respublika, ayrim tadqiqotchilar ta'biri bilan aytganda, "mamlakat gospitali"ga aylandi: 1941-yildagi 368 ta shifoxona 1945-yilra kelib 481 taga ko'paydi, umumiy o'rin soni qariyb 40 mingga yetdi, 1941-yil oktabridan 1945-yil iyuligacha evakogospitallarda 164 mingdan ortiq yarador va bemor davoland⁵.

Urush davri talablari sanitariya-epidemiologiya xizmatining tuzilishi va vazifalarini ham qayta belgiladi. Sog'liqni saqlash xalq komissarligi tarkibida epidemiyaga qarshi kurashning operativ tuzilmalari kuchaytirildi, sanitariya stansiyalari, bakteriologik laboratoriyalar va bezgakka qarshi stansiyalar tarmog'i ilmiy-uslubiy markazlar bilan bog'landi. Bu xizmat bir vaqtning o'zida amaliy epidemiologik nazorat, statistik hisob-kitob va ilmiy tahlil funksiyalarini bajardi. Aynan shu tuzilma orqali tibbiyot fani davlat boshqaruvi tizimiga bevosita integratsiyalashdi - ilmiy tavsiyalar ma'muriy qarorlarga aylanib, joylarda amalga oshirildi. Shu ma'noda urush davri sanitariya-epidemiologiya xizmati fan bilan davlat siyosati o'rtasidagi o'ziga xos ko'priq vazifasini o'tadi⁶.

³ГНИОММ — Она va bolalikni muhofaza qilish davlat ilmiy-tadqiqot instituti (Государственный научно-исследовательский институт охраны материнства и младенчества). Muassasa nomlanishi hujjatlarda asosan ruscha qisqartma shaklida uchraydi.

⁴ Хайназаров Б.Б. Медицинская помощь Узбекской ССР эвакуированным народам в годы войны. Военно-исторические аспекты жизни Юга России XVII–XXI вв.: вопросы изучения и музеефикации: III международная научно-практическая конференция (2021; Волгоград): [материалы]. –Волгоград: Сфера, 2021. –528 с.3.

⁵Development of medical infrastructure and the activities of hospitals in Uzbekistan during World War II // Oriental Journal of Social Sciences. Raqamlar nashr etilgan tadqiqotlar va davr matbuoti ma'lumotlariga ko'ra keltirilmoqda.

⁶ Parnomov, A. B. . (2025). DEVELOPMENT OF MEDICAL INFRASTRUCTURE AND THE ACTIVITIES OF HOSPITALS IN UZBEKISTAN DURING WORLD WAR II. *Oriental Journal of Social Sciences*, 5(10), 49–53. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-05-10-07>

Evakuatsiya jarayoni respublika tibbiyot faniga bevosita ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonga qator markaziy ilmiy va o'quv muassasalari ko'chirildi: Toshkentga jahonga mashhur olimlar keldi, Leningrad harbiy-tibbiyot akademiyasi 1942-yil yanvarida Samarqandga, 4-Moskva tibbiyot instituti Farg'onaga joylashtirildi.⁷ Ko'z kasalliklari sohasida akademik V. P. Filatov, tiklovchi jarrohlik sohasida professor N. A. Bogoraz singari olimlarning respublika shifoxonalari va ilmiy muassasalarida ishlashi mahalliy tibbiyot kadrlari uchun amaliy maktab vazifasini o'tadi. Bu - O'zbekiston tibbiyot fani uchun og'ir sinov bilan bir qatorda ilmiy salohiyatni jadal boyitgan omil ham bo'ldi⁸.

Evakuatsiya qilingan va mahalliy olimlarning hamkorligi tibbiyot fanida aniq ilmiy natijalar berdi. Urush sharoitida eng dolzarb bo'lgan harbiy-dala jarrohligi sohasida o'qotar qurol jarohatlarini davolash, gaz gangrenasi, shok va sepsis kabi og'ir asoratlarning oldini olish va davolash usullari takomillashtirildi, tiklovchi jarrohlik va dezinfektsiya usullari rivojlantirildi⁹. Bu izlanishlar bevosita evakogospitallar amaliyoti bilan bog'langan bo'lib, ilmiy tadqiqot va davolash amaliyoti o'rtasidagi masofani maksimal darajada qisqartirdi. Shu tariqa urush davri O'zbekiston tibbiyot fanida nazariya bilan amaliyotning uzviy birligini kuchaytirgan omil bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, Urush sharoitida shakllangan tibbiy infratuzilma va amaliy tajriba O'zbekistonda urushdan keyingi sog'liqni saqlash tizimi hamda tibbiyot fanining rivojlanishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qildi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Parnomov, A. B. . (2025). Development of medical infrastructure and the activities of hospitals in uzbekistan during world war ii. *Oriental Journal of Social Sciences*, 5(10), 49–53. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-05-10-07>
2. История развития медицинской науки в Узбекистане // Молодой учёный. — 2016. — № 6 (110).
3. Муминова Г.Э. История системы здравоохранения в Узбекистане в советский период (1917–1991 гг.). Автореферат диссертации доктора исторических наук (DSc) // Ташкент. –2018.
4. Хайназаров Б.Б. Медицинская помощь Узбекской ССР эвакуированным народам в годы войны. Военно-исторические аспекты жизни Юга России XVII–XXI вв.: вопросы изучения и музеефикации: III международная научно-практическая конференция (2021; Волгоград): [материалы]. –Волгоград: Сфера, 2021. –528 с.3.

⁷Leningrad harbiy-tibbiyot akademiyasi 1942-yil yanvarida Samarqandga evakuatsiya qilingan; 4-Moskva tibbiyot instituti Farg'onaga joylashtirilgan. Qarang: yuqoridagi Oriental Journal of Social Sciences maqolasi.

⁸ Муминова Г.Э. История системы здравоохранения в Узбекистане в советский период (1917–1991 гг.). Автореферат диссертации доктора исторических наук (DSc) // Ташкент. –2018.

⁹ Академия наук в интеллектуальной истории Узбекистана. II боб. Shuningdek: evakogospitallar va harbiy-dala jarrohligi bo'yicha ilmiy ishlar to'g'risidagi materiallar.